

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.Ped.09.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

OTEPBERGENOV JETKERBAY SAKBERGENOVICH

**KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TALABALARING
INTELLEKTUAL-KOGNITIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijası

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Otepbergenov Jetkerbay Sakbergenovich

Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish.....	3
-----------------------------------------------------------------------------------------------------	---

Отепбергенов Жеткербай Сакбергенович

Развитие интеллектуально-когнитивного потенциала студентов в условиях кредитно-модульной системы.....	35
-------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

Otepbergenov Jetkerbay Sakbergenovich

Developing students' intellectual and cognitive potential under the credit-module system.....	69
-----------------------------------------------------------------------------------------------	----

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publication.....	74
--------------------------	----

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.Ped.09.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

OTEPBERGENOV JETKERBAY SAKBERGENOVICH

**KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TALABALARING
INTELLEKTUL-KOGNITIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/Ped277 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ndpi.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xodjaev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ibraximov Sanjar Urunbayevich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Hamidov Jalil Abdurasulovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Azimova Ziyoda Ergashevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.09.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «31» I soat 9⁰⁰ dari majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko‘chasi raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (170-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko‘chasi raqamsiz uy. Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «17» I kuni tarqatildi.
(2026-yil «17» I da 170 raqamli reestr bayonnomasi).



B.P. Otemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.m.f.d., professor

G.K. Kdirbayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor


A.Q. Berdimuratova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, f.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Dunyoda ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning jadallahuvi va yuqori sifatli ta’limga o‘tish tendentsiyalari “kelajak xazinasi”ga istiqbolli farovonlik garovi sifatida diqqat-e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Juhon mehnat bozorida mutaxassislarining mobilligini oshirish, talim muassasalari o‘rtasida vertikal va gorizontal raqobatni ta’minlash, turli davlatlarda oliy ta’lim bitiruvchilarining diplomlarining tan olinishiga erishish, talaba va professor-o‘qituvchilarining mobilligini ta’minlashga doir yagona baholash tizimini joriy etish jarayonlari, shuningdek zamonaviy ta’limni insonparvarlashtirish, axborotlashtirish, raqamlashtirish, ta’limni tijoratlashtirish, texnologiyalashtirish, fundamentalligi, differentsiyallashuvi, standartlashuvi va diversifikatsiyalanishi singari xususiyatlari bilimli va intellektual salohiyatli kadrlarga bo‘lgan zaruriyatni belgilab beradi. AQSh, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Singapur kabi rivojlangan davlatlarda sun’iy intellekt davrida bo‘lajak mutaxassislarining formal va informal ta’limini tashkil etishga doir qator loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Dunyoda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarida moslashuvchan va maxsus kompetensiyalarni shakllantirish, interfaol ta’limning raqamli texnologiyalar bilan konvergentsiyasini ta’minlash, multimodal yondashuv asosida personallahsgan o‘qitish tizimining intensivligiga erishish mexanizmalarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, milliy mentalitet va milliy identiklikni saqlagan holda an’anaviy ta’lim paradigmidan mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, mustaqil va faol o‘qib-o‘rganish hamda o‘z-o‘zini tashkillashga qaratilgan kompetentli paradigmaga o‘tishga bo‘lgan ehtiyoj kuchaymoqda. Bu esa, o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalarida individual ta’lim traektoriyalariga ega, o‘z-o‘zini rivojlantirib borishga qodir, shaxsiy va kasbiy sifatlarga ega, shaxsiylashgan natijalarga erishish strategiyalarini mustaqil belgilay oladigan intellektual-kognitiv salohiyatga ega kadrlarni tayyorlashning didaktik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizda ilm-fan va ishlab chiqarishning rivojlanish tendentsiyalariga mos ta’limning mazmunini shakllantirish, o‘quv jarayonlarini tashkil etish shakllarini muvofiqlashtirish, zamonaviy o‘qitish metodlari, vosita va texnologiyalarini samarali qo‘llash, kasbiy rivojlanishning individual traektoriyalarini loyihalash uchun qator tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar yaratilmoqda. “Xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarni namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish”¹ oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa, pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish modeli va uni amaliyotga joriy etishning didaktik shart-sharoitlari hamda kredit-modul

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш турғисида”ги ПФ-5847-сон Фармони. Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон. Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон; Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон; 04.07.2023 й., 06/23/107/0441-сон.

tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son, 2025-йил 5-maydagi “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi ПФ-76-сон farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘isida”gi 824-son Qarori hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat vademokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharxi². Kredit-modul tizimi asosida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar jahon miqyosidagi yirik ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan Harvard universiteti, Massachusetts texnologiya instituti (AQSH), Oksford universiteti, Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya), Myunxen universiteti, Geydelberg universiteti, Kyoln universiteti (Germaniya), Belgorod davlat milliy-tadqiqot unuversiteti (Rossiya), Janubiy Qozog‘iston davlat universiteti (Qozog‘iston) da olib borilmoqda.

Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha jahonda qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, quyidagi ilmiy natijalar olingan: kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishning raqamli texnologiyalari ishlab chiqilgan (Harvard universiteti); startap loyihalari asosida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish tizimi ishlab chiqilgan (Massachusetts texnologiya instituti); personallahsgan ta’limni loyihalashning didaktik tizimi ishlab chiqilgan (Oksford universiteti); real chaqiriqlarga tezkor javob berishga yo‘naltirilgan

² Mazkur bandni yozishda quyidagi manbalardan foydalanildi: Gasanova R.R., Kassymova G.K., Arpentieva M.R., Pertiwi F. D., Duisenbayeva Sh. S., (2020). Individual educational trajectories in additional education of teachers. Challenges of Science. Issue III, p.: 59–68. <https://doi.org/10.31643/2020.009> Gu Qiyi (2009). Where is the way to study input and output [J]? Journal of Foreign Languages, Vol. 5, pp. 157–160. <https://doi.org/10.16263/j.cnki.23-1071/h.2009.05.037> (in Chinese).; Hebebcı, M. T. (2023). A Systematic Review of Experimental Studies on STEM Education. Journal of Education in Science Environment and Health, 9(1), 56-73.; Hebebcı, M. T., & Usta, E. (2022). The Effects of Integrated STEM Education Practices on Problem Solving Skills, Scientific Creativity, and Critical Thinking Dispositions. Participatory Educational Research, 9(6), 358-379.; Nazarova M. (2021). Technology for the Development of Cognitive Activity of Students in the Process of Teaching a Foreign Language. Ilkogretim Online - Elementary Education Online, Year; Vol 20 (Issue 4): pp. 1969-1975.; Tiffany Sauber Millacci (2022). How to Promote Cognitive Development: 23 Activities & Games. Published on 11 Jan 2022. URL: <https://positivepsychology.com/cognitive-development-activities/> (Accessed on 02 June 2023).

voqelikni chuqur tushunishga doir “Cambridge Approach” integrallashgan o‘qitish tizimi ishlab chiqilgan (Kembrij universiteti); talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan raqamli kouching tizimi ishlab chiqilgan (Myunxen universiteti); Heidelberg Center for Digital Transformation (HDZ) va Digitale Kompetenz dasturlari asosida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga doir loyihaviy faoliyatga jalb etish texnologiyalari ishlab chiqilgan (Geydelberg universiteti); talabalarning intellektual-kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga doir raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt agentlari ishlab chiqilgan (Kyoln universiteti); mustaqil yechimlar izlash va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan muammoli-izlanishli metodlar ishlab chiqilgan (Belgorod davlat milliy tadqiqot unuversiteti); onlayn kurslar, virtual reallik (VR), sun’iy intellekt(AI)ga asoslangan raqamli vositalar majmui ishlab chiqilgan (Janubiy Qozog‘iston davlat universuteti).

Jahonda talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishga doir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda: talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish; talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish; kognitiv sun’iy intellektning nazariy asoslarini takomillashtirish; intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning muammo va loyihaga yo‘naltirilgan metodlarini ishlab chiqish; inson kapitalining asosini tashkil etadigan faoliyat subyekti, shaxs, individuallik, innovatsiyalarga bo‘lgan qobiliyatni o‘zida birlashtirgan intellektual salohiyatni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish; amaliy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarda Soft skills va Hard skills kompetensiyalarini rivojlantirish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kredit-modul tizimini joriy etish, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng targ‘ib etish orqali talabalarning kognitiv salohiyati va kompetentligi, intellektual qobiliyati va ijodkorlik salohiyatini rivojlanirish muammolari bo‘yicha mamlakatimiz olimlaridan B.Adizov, N.Azizzo‘yeva, A.Aripdjanova, O.Davlatov, A.Ibragimov, J.Mardonqulov, M.T.Mirsoliyeva, N.A.Muslimov, M.Pardaeva, R.Safarova³ singari olimlar tomonidan olib borilgan bo‘lib, ta’limni ijodiy tashkil etish, o‘qituvchilarni tayyorlashning pedagogik texnologiyalari, ta’limni axborotlashtirish sharoitida pedagoglarning kreativ salohiyatini shakllantirish, axborot-kognitiv kompetentligini rivojlantirish,

³ Адизов Б.Р. Бошлангич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: Пед.фан.док... дисс. – Бухоро, 2002. – 276 б.; Азизхўжаева Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. – Т.: ТДПУ, 2000. – 52 б.; Арипджанова А.Р. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. Автореф. – Т., 2017. – 50 б.; Давлатов О.Ф. Талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини тарихий-маданий мерос воситасида ривожлантириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Тошкент, 2018. – 177 б.; Ibragimov A. Pedagoglarni uzlusiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv asoslari. / Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 160 б.; Mardonqulov J.A. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: avtoreferat. diss. (PhD) falsafa doktori. –Toshkent: 2022. –В. 54.; Мирсолиева М.Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлилигини ривожлантириш механизmlarini takomillashchi: педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc). ...дисс. – Тошкент, 2019. – 225 б.; Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакllantirishning назарий-методик асослари: Пед.фан.докт. ... дисс. – Тошкент: 2007. – 357 б.; Пардаева М.Д. Умумий ўрта таълим мактабларида компетенциявий ёндашувни жорий этишнинг методик тизимини бошқариш (информатика ва ахборот технологиялари фани мисолида): педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дис. автореф. – Тошкент, 2020. – 49 б.; Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Т.: Science and innovation. 2023 – 190 б.

kognitiv pedagogikaning ilmiy-pedagogik asoslari bilan bog‘liq muammolar yoritib berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.S.Kats, E.V.Vyazovova, D.V.Dudko⁴ singari olimlar tomonidan kognitivlikning turli qirralari tahlil etilgan bo‘lsa, A.N.Shamov, S.F.Sergeev, M.E.Bershadskiy, O.M.Chorosavay⁵ tomonidan kognitivlik masalasining psixologik, pedagogik, shuningdek, tibbiy aspektlari o‘rganilgan. E.Yu.Terner, B.A.Kidirova, Z.R.Muxamadiyeva, D.B.Bogoyavlenskaya⁶lar tomonidan bo‘lajak mutaxassislarda intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasalarining dolzarb vazifalaridan biri ekanligi, intellektual-kognitiv kompetentlikni takomillashtirish, intellekt, kognitsiya va ilm, intellektual-ijodiy va kognitiv mahsudorlik singari masalalar tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan U.Naysser, G.Drayden, D.Ausyubel, J.Bruner, H.Barrouz, S.Hmelo-Silver, Y.Doppelt, M.Savin-Baden, M.Korrea, M.Scheneder, S.Derri⁷ kabilar tomonidan intellekt intellekt nazariyasi, modellari, turlari va nazariyalari ilmiy-psixologik jihatdan tahlil etilgan.

Olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning tahlili natijasida shaxsning intellektual-kognitiv salohiyati keng qamrovli tushuncha bo‘lib, ularning har biri alohida kategoriya sifatida o‘rganilgan. Bu esa, birinchidan, intellektual-kognitiv salohiyatni yaxlit kategoriya sifatida tahlil etishni, ikkinchidan kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning nazariy-amaliy jihatlarini kompleks tadqiq etishni taqozo etdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasingin “Informatika fanlarini pedagogik institutlarda o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish” (2021–2025yy.) ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

⁴ Вязовова Е.В. Формирование когнитивной компетентности у учащихся на основе альтернативного выбора учебных действий (на примере обучения математике). – Нижний Тагил, 2009. – 140 с.; Кац А.С. Когнитивные стили современных педагогов: от дифиниции к реализации. //Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И.Я.Яковлева. – 2020 №3 (108). – 176-182 стр. <https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivnye-stili-sovremennyh-pedagogov-ot-definitsii-k-realizatsii>; Дудко Д.В. Когнитивная компетентность личности будущего педагога и динамика ее формирования // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. – Вып.63. 2008. – №2. – С.63-67.

⁵ Шамов А.Н. Когнитивный подход к обучению лексике: моделирование и реализация (базовый курс немецкого языка. – Автореф. дисс. докт.пед.н., - Тамбов, 2005. – 49 с.; Сергеев С.Ф., Бершадский М.Е., Чоросавай О.М. Когнитивная педагогика: технологии электронного обучения в профессиональном развитии педагога: монография. СВФУ им. М.К.Аммосова, Инст-т непрерывного проф. образования. – Якутск, 2016. – 337с.

⁶ Тернер Е.Ю. Цифровизация высшего образования: барьеры цифровой трансформации в высших учебных заведениях и онлайн-обучение (Ocl). Вестник Чувашского государственного педагогического института им. И.Я.Яковлева. 2022. №4 (117). 170-176стр.; Кыдырова Б.А. Когнитивная педагогика: основные проблемы и возможности. <https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivnaya-pedagogika-osnovnye-problemy-i-vozmozhnosti>; Мухамадиева З.Р. Теоретические основы развития интеллектуально-когнитивного потенциала студентов в условиях кредитной системы обучения в вузах Республики Таджикистан. Автореф. дисс. к.п.н. – Душанбе, 2013. – 25 с.; Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей: Учебно-пособие для студ. высш. учеб. Заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2002. – 320 с

⁷ Найсер У. Познание и реальность. Смысль и принципы когнитивной психологии. – Благовещенск: БГК им. И.А.Бодуэна де Куртене, 1998. – 224 с.; Драйден Г. Революция в обучении: Пер. с англ. / Гардон Драйден, Дженнетт Вос. М.: ООО «ПАРВИНЭ», 2003. – 672 с.; Ausubel, D. P. (2000). The acquisition and retention of knowledge: a cognitive view. Kluwer Academic Publishers. Bruner, J.S. (2009) The Process of Education. Harvard University Press, Cambridge.; Barrows, H. S. (1996). Problem-based learning in medicine and beyond: A brief overview. New Directions for Teaching and Learning,1996 (68), 3-12. <https://doi.org/10.1002/tl.37219966804>; Hmelo-Silver, C. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? Educational Psychology Review, 16, 235-266.; Doppelt, Y. 2003. “Implementation and Assessment of Project-Based Learning in a Flexible Environment.” International Journal of Technology & Design Education 13 (3). 255–272.; Savin-Baden, M. (2007). A practical guide to problem-based learning online. Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203938140>; Savin-Baden, M. (2021a). Postdigital humans: Transitions, transformations and transcendence. Springer Nature. <https://doi.org/10.1007/978-3-030-65592-1>; Correa, M. E. y Castro, F. & Lira, H. (2002). Hacia una conceptualización de la metacognición y sus ámbitos de desarrollo. Horizontes Educacionales, (7), 58-63.; Schneider, M., & Stern, E. (2010). The cognitive perspective on learning: Ten cornerstone findings. In H. Dumont, D. Istance, and F. Benavides (Eds.), The nature of learning: Using research to inspire practice(pp. 69–86). Paris.; Derry, S. J., Hmelo-Silver, C. E., Nagarajan, A., Chernobolsky, E., & Beitzel, B. (2006). Cognitive transfer revisited: Can we exploit new media to solve old problems on a large scale? Journal of Educational Computing Research, 35, 145-162.

Tadqiqotning maqsadi kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish;

talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish;

talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish mazmunini takomillashtirish;

pedagogika olyi ta’lim muassasalari talabalarining intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish modeli va uni amaliyotga joriy etishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish;

kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish jarayoni belgilangan bo’lib, tajriba-sinov ishlarining eksperimental bazasi sifatida Nukus davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat universiteti hamda Urganch davlat universiteti matematika va informatika, tarix va boshlang’ich ta’lim yo‘nalishlarining 378 nafar respondent-talabasi ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-nazariy metodlar (ilmiy manbalarni mantiqiy va tizimli tahlil qilish, sintez, taqqoslash, induksiya, deduksiya, tizimlashtirish, umumlashtirish, modellashtirish, informatika turkum fanlariga doir DTS, malaka talablari, o‘quv rejalar, darslik va qo‘llanmalarning tahlili); amaliy-empirik metodlar (kuzatish, suhbat, anketa, ekspert baholash, pedagogik eksperiment, test,); matematik-statistik metodlar (olingan natijalarni son va sifat jihatdan tahlil etish, interpretatsiya, korrelyatsiya, X^2 -metodi)dan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari intellekt nazariyasi”, “kognitsiya nazariyasi” va “saloxiyat nazariyasi” asosida inson faoliyatida qo‘llash mumkin bo‘lgan bilimlar bilan sub’ektning belgilangan maqsadga erishish va yangi bilimlarni yaratishga erishish uchun intellektual potentsialni turli usullar bilan qo‘llash qobiliyatlarining uyg‘unligini ta’minlash orqali aniqlashtirilgan;

talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari intellekt (yangi bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati), kreativlik (mustaqil tarzda yangi bilimlarni kashf etish) va o‘z-o‘zini yuqori darajada baholash qobiliyatlarining integrativ darajasini qatiy belgilash asosida intellektual-kognitiv salohiyatning pedagogik faoliyatni olib borishdagi funktsiyalariga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish mazmuni “sabab-natija” qoidasi asosida oliy ta’lim muassaslarida informatika turkum fanlarni o‘qitish jarayonida diqqat (selektiv, barqaror, ingubatsiya), bilish jarayonlaridagi egiluvchanlik, topshiriqlar va vazifalarni bajarishdagi faollik (rejalashtirish, nazorat, qarorlar qabul qilish) hamda tafakuur va nutq funksiyalariga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan;

pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish modeli va uni amaliyotga joriy etishning didaktik shart-sharoitlari kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish jarayonlarining loyihaviy texnologiyasi maqsadli-protsessual komponent va intellektual-kognitiv salohiyatni rivojlantirish mexanizmlarining faoliyatli yondashuvga mos kafolatlangan natijaga erishishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish jarayonlarining loyihaviy texnologiyasi auditoriya mashg‘ulotlari va auditoriyadan tashqari mustaqil ta’lim jarayonlarda an’naviy va interfaol metodlarni aralash qo‘llash asosida maqsad va shart-sharoitlarni aniqlash (motivatsiya, mazmun, ta’lim shakllari), ta’lim metodlari va texnologiyalarini tanlash (an’naviy, faol, interfaol, muammoli, raqamli, sinergetik, shaxsga yo‘naltirilgan), ta’lim jarayonini tashkil etish algoritmi (loyihalar asosda, simuyaltsiyalar yordamida), tashxis (jarayonning monitoringini olib borish) hamda refleksiyalarning arxitektonikasini yaratish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Xabar texnologiyalarin kasiplik iskerlikte qollaw” nomli o‘quv qo‘llanma chop etilgan;

“Kredit-modul tizimida kognitiv kompetensiyalarni baholash va monitoring qilish tizimini ishlab chiqish” (№DGU 53194) nomli dastur yaratilgan;

“Dasturlash” nomli o‘quv-metodik qo‘llanma chop etilgan;

talabalarning kognitiv va intellektual bilimini aniqlashga doir “EduMind” nomli web platforma (DGU 56774) ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi metodologik tamoyillarga asoslanganligi, unda qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalarining identivligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “kognitivlik”, “intellekt”, “kognitiv-intellektual salohiyat” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berilganligi, talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish tuzilmasining aniqlashtirilganligi, informatika turkum fanlarini o‘qitishning nazariya va amaliyotdagi holati tahlil qilinib, takomillashtirilgan didaktik ta’minotni yaratishga doir ilmiy taklif va tavsiyalarning ishlab chiqilganligi, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv

salohiyatini rivojlantirishning kontseptual asoslarining ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati informatika turkum fanlarining talabalarning kognitiv-intellektual salohiyatini rivojlantirishga doir didaktik imkoniyatlarining ochib berilganligi, talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish tizimining ishlab chiqilganligi, kredit-modul tizimida sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va amaliy jihatlarining yoritib berilganligi, kredit-modul sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish modeli va uni amalga oshirishning didaktik shart-sharoitlarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalar Oliy ta’lim muassasalarining barcha ta’lim yo‘nalishlari talabalar uchun “Uliwma pedagogika: Pedagogika teoriyası. Pedagogika tariyxi. Pedagogikalıq sheberlik” nomli darsligining mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 4-martdagi 55-son buyrug‘i; 412262-son bilan ro‘yxatga olingan). Natijada, talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish mazmuni takomillashtirilgan;

talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan “Algoritmlar va berilganlar strukturasi” nomli darsligining mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Guliston davlat univesiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil 3-iyulda 11-son bayonnomasi; universitet rektorining 2024 yil 4-iyulda 101-son buyrug‘i bilan ro‘yxatga olingan). Natijada, talabalarning algoirtmik masalalarni yechishdagi salohiyatini oshirishning didaktik ta’minoti takomillashtirilgan;

talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish mazmuni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan “Informatika oqitw metodikasi” nomli darsligining mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27-dekabrdagi 484-son buyrug‘i; 572141-son bilan ro‘yxatga olingan). Natijada, talabalarning algoirtmik masalalarni echishdagi salohiyatini rivojlantirish texnologiyasi takomillashtirilgan;

pedagogika olyi ta’lim muassasalari talabalarining intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish modeli va uni amaliyotga joriy etishning didaktik shart-sharoitlari takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Oliy ta’lim muassasalarining 60540200 – Amaliy matematika bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalar uchun “Algoritmlar va berilganlar strukturasi” nomli darsligining mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Guliston davlat univesiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil 3-iyulda 11-son bayonnomasi; universitet rektorining 2024 yil 4-iyulda 101-son buyrug‘i bilan ro‘yxatga olingan).

Natijada, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish samaradorligini oshirishga erishilgan;

kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish jarayonlarining loyihaviy texnologiyasi takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Oliy ta`lim muassasalarining barcha ta`lim yo`nalishlari talabalari uchun “Ulîwma pedagogika: Pedagogika teoriyası. Pedagogika tariyxı. Pedagogikalıq sheberlik” nomli darsligining mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 4-martdagi 55-son bo‘yrug‘i; 412262-son bilan ro‘yxatga olingan). Natijada, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishda uzviylik va uzuksizlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 14 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar kiritilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida sinergetik yondashuv asosida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi, talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, mazkur fenomenning tuzilmasi va komponentlari, kredit-modul tizimida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning mavjud holati yoritib berilgan.

Ma’lumki, jahonda qabul qilingan “insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi” tamoyilining mamlakatimizda ham ta’lim sohasidagi asosiy printsiplaridan biri sifatida belgilanishi⁸ o‘z-o‘zidan har bir shaxsning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirib borishni taqozo etadi. Chunki XXI asr inson kapitaliga, uning intellektual mehnatining natijasi bo‘lgan mahsulotga, intellektual mulkni yaratishga doir ilmga asoslangan potensialga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmani vujudga keltirmoqda. Bu borada

⁸ Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ти Конуни. (23.09.2020) // Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020., 03/20/637/1313-сон.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” Strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son Qarorida “har bir insonga o‘z salohiyatini ruyobga chiqarishchun munosib sharoitlar yaratish”⁹ qat’iy belgilab berilgan.

Aytish joizki, qadim davrlardan boshlab yoshlarni har tomonlama rivojlantirishda aql tarbiyasi asosiy o‘rinni egallab kelganligini buyuk alloma va faylasuf olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ular aqlni, ya’ni intellekni asosan “bilim” bilan bog’laydilar. Kognitsiya nazariyasining asosini bilimni izlash – bu ilohiy kuch, qalbni tanish, ayniqsa intellekni bilish ushbu izlanishning ajralmas tarkibiy qismi deb bilishgan¹⁰. Ibn Rushd esa, “umuminsoniy intellekt” haqida fikr yuritib, “faol intellekt” bilan “moddiy intellekt”ning abadiy va bir butinligi, shuningdek, bilimning univarsalligi va individualligining “spekulyativ intellekt”, ya’ni tajribaga emas, balki mantiq, intutsiya va fikrlash jarayonlarini o‘zida birlashtiradigan “uzluksiz intellekt” bilan bog’liqligi haqidagi fikrlar¹¹ni olg‘a surgan.

Ayniqsa, yoshlarga samarali ta’lim-tarbiya berishda muhim rol o‘ynaydigan pedagog-kadrlarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqil bilish (kognitivlik) va intellektga (aqlga) asoslangan insonning salohiyati uning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, davlat va jamiyatning rivojlanishiga o‘z hissasini munosib qo‘shishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda uning o‘zligini anglashi, boshqalarning salbiy ta’siridan himoyalanishi, ma’naviy va ma’rifiy rivojlanishiga ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

“Intellektual-kognitiv salohiyat” tushunchasini ilmiy-pedagogik fenomen sifatida tahlil etish uning asosini tashkil etuvchi “intellekt nazariyasi”, “kognitsiya nazariyasi” va “salohiyat nazariyasi” masalalarini alohida ilmiy-pedagogik jihatdan o‘rganishni talab etadi. Intellekt nazariyasi intellektual salohiyatning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan intellektual salohiyat faylasuf, iqtisodchi, psixolog va pedagog olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Faylasuf olimlar O.V.Shilova, V.P.Shatilolar esa, ta’lim ijtimoiy muhitni intellektual potentsialni rivojlantirish omili sifatida baholaydi.

Sotsiolog olimlar V.V.Kornev, G.F.Kongurtsova intellektual potentsialning intellektual mulk, intellektual novatsiya va innovatsiyalar, intellektual ijod va intellektual kapital atamalar uchun bazis (tayanch) tushuncha bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi. Olimlar tomonidan “intellektual potentsial” tushunchasi xalqning savodxonlik darajasi, ilm-texnika, ijtimoy ongning rivojlanganlik, mehnat faoliyati jarayonida ijodkorlik darajasi singari ko‘plab ma’noga ega ekanligi ta’kidlanadi hamda uni ikkita (subyektning rivojlanishi hamda ijtimoiy hodisa va voqealarning intellektuallashuvi; jamiyatning rivojlanishini boshqarishni intellektuallashtirish va uni ijtimoiy jarayon sifatida) yo‘nalish bo‘yicha ilmiy jihatdan o‘rganish taklif qilingan.

Mazkur muammo iqtisodchi olimlarning ham e’tiborini o‘zini tortgan bo‘lib, V.A.Kadomtseva, I.V.Bogdashev, X.M.Xodjalovalar intellektual potentsialni

⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги “Ўзбекистон-2030” Стратегиясини 2023 йилда сифатли ва ўз вактида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-300-сон Карори. Конунчилик маълумотлари миллӣй базаси, 12.09.2023 й., 07/23/300/0693-сон; 21.01.2025 й., 07/25/12/0056-сон.

¹⁰Арабская и исламская психология и философия сознания. <https://brickofknowledge.com/articles/arabic-and-islamic-psychology-and-philosophy-of-mind>.

¹¹ Аверроэс (Ибн Рушд). Оправдание опровержения. С. 506 (перевод Н.В.Ефремова. //Ефремова Н.В. Универсалистская интенция фальсафы. //Ислам в современном мире. – 2017 г. Том 13. №4, 167-186 С. (177-178с)

intellektual kapital bilan bog'laydilar hamda mamlakatning intellektual potentsiali sohalarda faoliyat yuritayotgan kadrlarga bog'liqligini, bunda iqtisodiy bilimlarning o'rnini ilmiy asoslaydilar. Olimlar **intellektual potentsial** – bu mustaqil bilish subyekti (kognitiv subyekt)ning inson faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan bilimlar hajmi bo'lsa, **creativ potentsial** esa, kognitiv subyektning belgilangan maqsadga erishish va yangi bilimlarni yaratishga erishish uchun intellektual potentsialni turli usullar bilan qo'llash qobiliyati, degan xulosaga kelishgan.

Charlz Spirmen, Xorn Kerrol Kattel, Govard Gardner, Robert Sternberg, Djoy Pol Gilford, Mayk Anderson, D.B.Bogoyavlenskaya kabilar ko'plab intellektual potentsialga doir psixologik nazariyalar va kontseptsiyalarni yaratishgan bo'lib, mazkur muammoning psixologik jihatlari atroficha o'rganilgan. Chunki intellekt bevosita insonning miya faoliyati bilan bog'liq.

Pedagogik jihatdan intellektual-kognitiv salohiyatning turli qirralari B.Adizov, A.Aripdjanova, O.Davlatov, A.Ibragimov, J.Mardonqulov, M.T.Mirsoliyeva, R.Safarova kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lib, "kognitiv ta'lim", "kognitiv pedagogika", "muammoga yo'naltirilgan o'qitish" masalalarini yoritishda kompetentsiyaviy yondashuvga ustuvor ahamiyat qaratilgan bo'lsa, A.S.Kats, E.Vyazovova, D.Dudko, A.Shamov, S.Sergeev, M.Bershadskiy, O.Chorosavay singari olimlarning ilmiy izlanishlarida kognitiv pedagogikaning qonuniyatlarini alohida yoritib berilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, shaxsning intellekti eng avvalo, bilim bilan bog'langan. Bilim esa, o'z navbatida shaxsning kognitiv faoliyati bilan bog'liq. Avvallari "kognitivlik" tushunchasi ilmiy fenomen sifatida qo'llanilmagan bo'lsa-da, "bilish", "bilish jarayoni", "o'quv-biliuv faoliyati", "bilishga qiziqish", "bilish nazariyasi" bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilgan.

"Salohiyat" fenomenining ham turli aspektlari o'rganilgan. "Potentia" tushunchasi lotin tilidan olinib, "kuch", "qudrat" ma'nolarini bildirib, mazkur tushuncha predmet, jarayon va insonlarga nisbatan qo'llanilishini ko'rish mumkin. "Inson salohiyati" keng qamrovli tushuncha bo'lib, u insonning shaxsiy fazilatlari va kapitali bilan bir qatorda o'zi faoliyat yuritadigan soha yoki faoliyat jarayoni bilan bog'liq tarzda qo'llaniladi. Bizning tadqiqotimizda "salohiyat" atamasi bevosita inson, ya'ni talabalarning o'quv-biliuv faoliyati va shaxsiy fazilatlari, yanada aniqroq aytganda, ularning intellektual-kognitiv imkoniyatlari bilan bog'liq tarzda qo'llaniladi. Tadqiqotimiz bilan aloqador ilmiy izlanish Z.R.Muxamadiyeva¹² tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u Tojikiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning kredit tizimida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq etgan. Biroq pedagogik tadqiqotlar metodologiyasiga muvofiq, obyekt bitta, lekin tadqiqot predmeti yuzlab, minglab bo'lishi mumkin.

Retrospektiv tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, olimlar tomanidan "intellekt", kognitivlikning yorqin ko'rinishi sifatida "bilish nazariyasi", "salohiyat" masalalariga alohida kategoriya sifatida qarash ustunlik qiladi. Mazkur tushunchalarni bir kategoriya sifatida tadqiq etish bizning tadqiqot predmetini tashkil etadi. Aniqroq aytganda,

¹² Мухамадиева З.Р. Теоретические основы развития интеллектуально-когнитивного потенциала студентов в условиях кредитной системы обучения в вузах Республики Таджикистан. Автореф.дисс.....к.п.н. – Душанбе, 2013. – 25 с.

“intellektual-kognitiv salohiyat”ni yagona kategoriya va yaxlit tizim sifatida tadqiq etish lozim, degan xulosaga kelindi. Tahlillar natijasida *intellektual-kognitiv salohiyat – bu insoning aqliy va bilish faoliyati, muammolarga yechim topish, axborotlarni kasbiy faoliyatda qo'llash, yangi sharoitlarga moslashish, ta'lim resurslari va kontentlaridan samarali foydalanishni o'zida birlashtiradigan individual-integrativ sifati, fikrlash qobiliyati va inson ongining rivojlanganlik darajasi, intellektual koeffitsiyentini (IQ) belgilovchi hamda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga doir murakkab, keng qamrovli fenomen va yaxlit tizim*, – degan mualliflik yondashuviga asoslangan ta'rif taklif etildi. Mazkur salohiyat turi barcha faoliyatga asos sifatida xizmat qiladi va ilm-fanda yaxlit tarzda deyarli o'rganilmagan muammo hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida keljak avlodning ta'lim va tarbiyasiga mas'ul bo'lgan pedagogika yo'nalishi talabalarida intellektual-kognitiv salohiyatni rivojlantirish alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki bugungi kun, ya'ni axborotlashgan, globallashgan XXI asr pedagog kadrlardan bir vaqtning o'zida **bilim, aql** va ularni amalda qo'llashga doir **salohiyatga ega bo'lishni** talab etadi.

XXI asrda faqatgina bilimli emas, balki o'z bilimlarini “tovarga” aylantira oladigan, “davlat menga ish ber emas”, balki davlat va jamiyatda o'z sohasi bo'yicha “ish o'rnini yaratishga” salohiyatli kadrlar tayyorlash talab etiladi. Shuning uchun axborotlar makoni va sun'iy intellekt davri hisoblangan XXI asrda talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatni rivojlantirishning asosiy **maqsadlariga** quyidagilarni kiritish mumkin:

ijtimoiy hayotda, bevosita kasbiy faoliyatda uchraydigan turli qiyinchiliklar, ziddiyatlar va risklarni yengib o'tish imkonini beradigan kognitiv bilim, intellektual zehn, ijtimoiy pertseptsiya hamda shaxsiy va kasbini qobiliyatlarni rivojlantirish;

shaxsiy va kabiy sifatlar, pedagog sifatida bolalar, ularning ota-onalari, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatni rivojlantirish;

ta'lim muhitiga va pedagogik faoliyatga qo'yiladigan zamonaviy talablarga moslashish, kasbiy faoliyatdagi turli novatsiyalarni idrok etish va amaliyotga joriy etish hamda o'zining pedagogik faoliyatini real baholay olish;

pedagogik vaziyatlarni tahlil etish hamda ta'lim va tarbiyani samarali tashkil etishga doir strategik yo'lini belgilab olish;

axborot-kommunikatsion texnologiyalar va raqamli savodxonlik va ta'lim olishdagi egiluvchanlik (elastiklik);


shaxsiy rivojlanish hamda kasbiy jihatdan akmeologik darajaga erishishga doir bilim va tajribalarni o'zlashtirish.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun oliy ta'lim muassasalaridagi kredit-modul tizimiga asoslangan ta'lim mazmuni aniq maqsadga yo'nalganlik, yaxlitlik, ilmiy asoslanganlik, natijaga yo'nalganlik, tizimlilik, kafolatganlik tavsifiga ega bo'lishi talab etiladi.

Tadqiqot doirasida “intellektual salohiyat” va “kognitiv salohiyat” tushunchalarini tahlil qilish, intellektual-kognitiv salohiyatni namoyon bo'lishining dinamik xususiyatlari, pedagogik faoliyatga xos funktsiyalarining o'ziga xosligi asosida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyati tuzilmasi aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).

KOGNITIV QOBILIYAT

(idrok, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, axborotni qayta ishlash va tahlil qilish, qaror qabul qilish, muammoga yechim topish)



1-rasm. Talabalarining intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish tuzilmasi

1-rasmdan ko'rinish turibdiki, to'rt konstrukt (kognitiv qobiliyat, intellektual potensial, vitagen tajriba, funktional tizimlar) va dinamik tarkibiy asoslar o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq hamda shartlangan bo'lib, talabalarining intellektual rivojlanishi, ularning kognitiv faolligini oshirish hamda o'quv va kvazikasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **"Talabalarining intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari"** deb nomlangan ikkinchi bobida kredit-modul tizimi sharoitida talabalarining intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik determinantlari, mazkur jarayonni amalga oshirish modeli va shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida kredit-modul tizimi (KMT) ta'lim jarayonini tashkil etishning samarali vositasi sifatida qo'llaniladi. AQSH va Buyuk Britaniyada KMT moslashuvchanlik, o'quv rejasini individuallashtirish va talabalarining akademik erkinligi tamoyillariga asoslanadi. Talabalar o'zlarining akademik qiziqishlariga ko'ra fanlarni tanlash imkoniyatiga ega, bu esa mustaqil o'rganish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Kanada va Avstraliyada KMT masofaviy va aralash

ta’lim dasturlari doirasida faol qo‘llaniladi, bu esa talabalarga ta’limni kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

KMTga xos bo‘lgan o‘quv jarayonining moslashuvchanligi motivatsiyaning o‘sishiga yordam beradi, chunki talabalar o‘zlarini qiziqtirgan fanlarni tanlash va qulay sur’atda ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Finlyandiyada KMT o‘qituvchilar bilan individual maslahatlar tizimi bilan birgalikda olib boriladi. Bu esa, talabalarning stress holatini kamaytiradi va ularning ta’lim jarayonidagi partisipativligini oshiradi. AQShda KMT bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar fanlarni tanlash va individual afzalliklarga ko‘ra, yuklamani taqsimlash imkoniyati tufayli yuqori darajadagi faollikni namoyish etadilar. Rossiya oliv iqtisodiyot maktabida o‘tkazilgan tadqiqotlar KMT bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar mustaqil tadqiqotchilik faoliyatida yigirma besh foiz ko‘proq tashabbus ko‘rsatishini tasdiqlagan.

Mahalliy darajada KMTni joriy etish talabalarni yangi o‘qitish usullariga yetarlicha tayyor emasligi, materialni mustaqil o‘zlashtirish motivatsiyasining pastligi va o‘quv yuklamasini boshqarishning murakkabligi bilan bog‘liq ma’lum qiyinchiliklar bilan kechmoqda. Biroq o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kredit-modulli tizimning muvaffaqiyati talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishga bevosita bog‘liqdir.

Talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish murakkab va keng qamrovli jarayon bo‘lib, ta’lim oluvchilarning bilish jarayonlari, aqliy qobiliyati, kasbiy-pedagogik layoqati, ijodiy imkoniyatlari va vitagen tajribalarini o‘zida birlashtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan oliv ta’lim muassasalarida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish qator determinantlar bilan bog‘liq hisoblanadi.

Rivojlanishning faoliyat asoslari ehtiyojlar psixologiyasiga asoslangan holda harakatlantiruvchi kuch(determinant)larga e’tibor qaratishni talab qiladi. Talabalarning intellectual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning ehtiyoj bilan bog‘liq jihatni faoliyat motivatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Ehtiyojlar va motivlar talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga potensial tayyorligini belgilaydi va intellektual-kognitiv salohiyat uning samaradorligiga hissa qo‘shadi. Ana shu sababli ehtiyojlar va motivlar talabalarning intellectual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning dominant harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinishi lozim.

Shuni ta’kidlash kerakki, murakkab pedagogik masalalarga aniq va tez yechim topish kvazikasbiy faoliyatni imitatsiyalash uchun barqaror motivlarning mavjudligi intellektual-kognitiv salohiyatning barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirishning ishonch nuqtasidir. Talabalarning ichki, tashqi ijobiy va tashqi salbiy motivatsiyasi uning xatti-harakatlari va ta’sirlarga bo‘lgan munosabatini tartibga soladi, shu bilan birga dolzarb va istiqbolli faoliyatni belgilaydi.

Aniq va ongli maqsadlar talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning yana bir harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Belgilangan maqsadining aniqligiga erishish muhim hisoblanadi. Aniqlik “hayoliy vaziyat” (D.N.Uznadze), “yakuniy natija tasviri” (J.Miller) bo‘lib, maqsadlarni belgilash SMART texnologiyadan foydalanish orqali ta’minlanadi.

Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning yana bir harakatlantiruvchi kuchi vitagen tajribani yaxlit shaklda aks ettiradigan qadriyatli yo‘nalganlik tizimidir. Qadriyatli yo‘nalganlik insonning fikrlari va his-tuyg‘ulari atrofida aylanadigan va ko‘plab hayotiy masalalarni hal qiladigan ma’lum bir ong tarzini ifodalaydi. Ko‘pgina tadqiqotchilar insonning qadriyatli yo‘nalganligi xususiyatlaridan biri sifatida dinamizmni e’tirof etishadi. Xususan, S.L.Rubinshteyn inson hayoti davomida qadriyatlarni muntazam ravishda qayta baholashini alohida ta’kidlab o‘tgan.

Ilmiy izlanishlar natijasida talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning tashqi dominant harakatlantiruvchi kuchlari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

talabalarning intellektual imkoniyatlari va potensial qobiliyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish;

ta’lim jarayonida talabalarning fikrlash operatsiyalarini jadallashtirishga doir raqamlı kontentlarni yaratish;

fikrlar va g’oyalar generatsiyasini shakllantirishga qaratilgan ijodiy topshiriqlar tizimini yaratish va h.k.

Tadqiqot doirasida analitik va kontsentratsiyaga asoslangan holda, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning funktsiyalari ham aniqlashtirildi:

faol o‘quv-bilish faoliyati asosida talabalarning selektiv diqqati (axborotlarning asosiy jihatlariga e’tibor qaratish) va ingibatsiya (axborotlarni saralash asosida e’tiborga molik bo‘lmagan axborotlardan tiyilish)ni rivojlantirish;

o‘quv hajmi va yuklamalari hamda unga moslashish jarayonlarida kognitiv egiluvchanlik sifatlari, ya’ni topshiriqlar va o‘quv strategiyalari doirasida tezda harakatlanish va moslashish qobiliyatlarini rivojlantirish;

o‘quv fanlari doirasida bajariladigan mustaqil ishlarni rejalashtirish, maqsadga yo‘nalganlik, o‘z-o‘zini boshqarish, yechimlar qabul qilish hamda analitik kompetentsiyalarni shakllantirish;

o‘quv fanlari doirasida loyihaviy topshiriqlarini bajarishda bilish jarayonlarini faollashtirish hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;

Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning asosiy qoidalarini asoslash uchun tadqiqot konsepsiyasining asosini tashkil etuvchi qonuniyat va tamoyillarni aniqlashtirib olish zarur. Qonuniyat takrorlanuvchi, muhim, zaruriy aloqadorlik bo‘lib, rivojlanish jarayonlarida mavjud bo‘lgan hodisa va voqelik obyektlarining nisbatan barqaror va takrorlanuvchi munosabatlaridir.

Ana shu nuqtai nazardan talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishda quyidagi xususiy qonuniyatları hisobga olindi: intellektual-kognitiv tizimning murakkabligi zaruriy xilma-xillikka ega bo‘lgan boshqaruvni talab qiladi; talabaning intellektual-kognitiv faoliyati samaradorligining uning motivatsiyasi kuchiga bog‘liqligi; intellectual-kognitiv ko‘nikmalarning rivojlanishida chegaranining mavjud emasligi; o‘zining aqliy tuzilishiga ko‘ra, murakkab malakalar shakllanadigan faoliyatga yaqin bo‘lgan ko‘nikmalarni avtomatlashgan holatga o‘tkazish tendentsiyasi; salohiyatni rivojlantirishdagi “bo‘shliq” – mazkur tendentsiyaning

mavjudligi yangi, yanada samarali intellectual-kognitiv faoliyat usullarini o‘zlashtirishga mayning notekisligi bilan bog‘liq; layoqatning susayishi takroriylik bo‘limganda intellektul qobiliyat rivojlanishining sustlashuv tendentsiyasi; emotsiyal barqarorlik – bu ontogenezning ma’lum bir davrida insonning hissiyotlari, emotsiyal reaksiyalarining umumiyligi zahirasi nisbatan doimiy ekanligi va uarning namoyon bo‘lishi vaziyatlarning jadalligi va urinishlarga bog‘liqligini tasdiqlaydigan emotsiyal sohani funksionallashtirishning muntazamligi: o‘zgaruvchanlik – shaxsiy “Men”ning pasayishi, haqiqiy ehtiyoj obyektining o‘z-o‘zidan o‘zgarishi yoki aqliy zo‘riqishlardan himoya qilish mexanizmi, faol energiyaning bir faoliyat turidan boshqasiga o‘tishi, yangilanish bilan birga sodir bo‘ladi.

Tadqiqot ilmiy konsepsiyasining nazariy asosini qonuniyatlar bilan bir qatorda tamoyillar ham tashkil etadi. Tamoyillar dastlabki asos, boshlang‘ich qoidalaridir. Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

“yaqin rivojlanish zonasasi”ga yo‘nalganlik tamoyili. Bu talabalarga individual ta’lim trayektoriyani loyihalash imkonini beradi;

“partisipativlik” tamoyili – faoliyatda ishtirok etish, shaxsning o‘zini ijtimoiy voqelikning bir qismi sifatida bilishi natijasi o‘laroq atrofdagilar bilan muloqotga kirishishi, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etishi va shaxslararo munosabatlarda birdamlikka erishishi;

“hamkorlik” tamoyili – murakkab masalalarga yechim topishda birgalikda qarorlar qabul qilish va subyektiv o‘zaro ta’sirni dolzarblashtirish;

“uzviylik” tamoyili – intellektual-kognitiv salohiyatning rivojlanishi mintazam davom etadigan jarayon ekanligini hisobga olsih;

“intensivlik” tamoyili – talabalarning intellectual-kognitiv faoliyatiga jadal ta’sir ko‘rsatish, o‘z-o‘zini to‘liq anglashi uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish;

“diversifikatsiya” tamoyili – talabalarning intellektual rivojlanishi, tashabbuskorligi, novatsiyalarni o‘zlashtirishga tayyorligi;

“subyektivlik” tamoyili – talabalarning intellektual-kognitiv faoliyatning haqiqiy subyekti sifatida rivojlanishini ta’minlash;

“refleksivlik” tamoyili – intellektual-kognitiv faoliyatni real baholash;

“fasilitativlik” tamoyili – talabalarning intellektual-kognitiv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zarur.

Bizning tadqiqotimizda model tushunchasini biror-bir obyekt, jarayon yoki hodisaning “o‘rnini to‘ldiradigan” yoki “namoyon etadigan” fikriy yoki shartli analog sifatida talqin qilindi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model (2-rasmga qarang) kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning nazariy loyihasini o‘zida aks ettiradi. Mazkur nazariy loyiha kredit-modul tizimining real sharoitida to‘liq amalgalashish mumkin.

Modelni loyihalashda M.Benedek¹³ va boshqalarning intellekt, kreativlik, kognitiv nazorat, G.N.Artamonov¹⁴ning intellektning tizimli, A.S.Sedunova¹⁵ning tizimli-mazmunli, operatsion-natijaviy, regulyativ-baholovchi, M.A.Teslya¹⁶ning o‘quv faoliyatida intellektual qobiliyatlar va kognitiv stillar, O.V.Shilova¹⁷ning kognitiv-kreativ, qadriyatli-praksiologik, I.V.Smirnova¹⁸ning intellektual kompetentlikni shakllantirish, Z.R.Muxamadiyeva¹⁹ning tug’ma va orttirilgan ko‘p darajali parametrlar majmuidan iborat modellariga asoslanildi.

Yaxshi ma’lumki, turli modellarni ishlab chiqish uchun metodologik yondashuvlar, oddiyroq qilib aytganda ilmiy nazariyalar asos vazifasini bajaradi. Zamonaviy ilm-fan metodologik umumlashma sifatida ko‘plab yondashuvlar bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishda tizimli, faoliyatga doir, kompetensiyaviy, modulli, sinergetik, aksiologik yondashuvlarning metodologik imkoniyatlari yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Modelning jarayonli-maqsadli blokining mohiyati talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish jarayonining asosiy yo‘nalishini aniqlash, ko‘zda tutilgan natijalarga erishishni loyihalash uchun dastlabki asosni belgilab olishdan iborat. Maqsadning asosiy vazifasi talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishdan kutilgan natijani rejalashtirishdan iborat. Kutiladigan natija sifatida talabalarning kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalari va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, metapredmetli kompetensiyalarni (refleksiya; o‘z-o‘zini baholash; analitik fikrlash; samarali muloqot va hamkorlik) shakllantirish belgilandi.

Modelning tashkiliy-texnologik bloki faoliyatni tashkil etish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish mazmuni, jarayonni amalga oshirish taksonomiyasi va instrumenti, foydalaniladigan o‘qitish strategiyalarini belgilab beradi.

Modelning mazmunli asosi talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishni ko‘zda tutuvchi kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashni o‘zida aks ettiradi: intellektual-kognitiv faoliyatni ongli amalga oshirishga yordam beradigan ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish; metakognitiv strategiyalarni o‘zlashtirish; intellektual-kognitiv faoliyat tajribasi.

¹³ Benedek, M., Jauk, E., Sommer, M., Arendasy, M., & Neubauer, A. C. (2014). Intelligence, creativity, and cognitive control: The common and differential involvement of executive functions in intelligence and creativity. *Intelligence*, 46, 73–83.

¹⁴ Артамонов Г.Н. Системное управление развитием интеллектуального потенциала учащейся молодёжи. Автореф. дисс... к.соц.н. – Москва, 2016. – 51 с.


¹⁵ Седунова А.С.. Психолого-акмеологические особенности активизации интеллектуального потенциала студентов вузов. Автореф. дисс... к.пс.н. – Ульяновск, 2004. – 28 с.

¹⁶ Тесля М.А. Структура и динамика интеллектуальных способностей и когнитивных стилей в учебной деятельности. Автореф. дисс... к.пс.н. – Москва, 2005. – 28 с.

¹⁷ Шилова О.В. Интеллектуальный потенциал человека современного российского общества. Автореф. дисс... к.филос.н. – Ставрополь, 2012. – 22 с.

¹⁸ Смирнова И.В. Модель формирования интеллектуальной компетентности студентов-биотехнологов. // Педагогические образования в России. – 2017. – №6. – С.200-204.


¹⁹ Мухамадиева З.Р. Теоретические основы развития интеллектуально-когнитивного потенциала студентов в условиях кредитной системы обучения в вузах Республики Таджикистан. Автореф. дисс... к.п.н. – Душенбе, 2013. – 25 с.



2-rasm. Talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatni rivojlantirish modeli

Talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatni rivojlantirishga doir faoliyatni tashkil etish va o'quv materiallarini tanlashda J.P.Gilfordning kubikli taksonomiyasiga asoslanildi (3-rasmga qarang). Taksonomiya uch o'chovli kubik shaklini o'zida aks

ettiradi: jarayonlar (fikrni qayta ishlash jarayoni); mazmun (qayta ishlanadigan axborot turi); natijalar (fikrlash mahsuli). Jarayonli o‘lchov 5 ta (bilish; xotira; konvergent fikrlash; divergent fikrlash; baholash), mazmunli o‘lchov 4 ta (obrazli; ramziy; semantik; xulq-atvorga doir), jarayonli o‘lchov 6 ta (elementlar; sinflar; munosabatlar; tizimlar; transformatsiya; xulosalar/prognozlar) kategoriya hamda 120 ta intellektual qobiliyatni o‘z ichiga oladi.



3-rasm. J.P.Gilfordning uch o‘lchovli taksonomiyasi

Natijaviy-baholash bloki diagnostik, nazorat va analitik funksiyalarni bajaradi. U o‘zida kutiladigan natija – talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatni rivojlantirish va uni o‘lhash vositalarini tavsiflaydi. Olingan natijalar sifat va miqdor mezonlari hamda diagnostik ko‘rsatkichlar asosida o‘lchanadi va baholanadi. Shuningdek, model o‘zida talabalarni intellektual-kognitiv faoliyatga tayyorgarligining nazariy-metodologik asoslari(yondashuvlar, qonuniyatlar, tamoyillar, vosita, o‘qitish strategiyalari)ni ham o‘zida ifoda etadi.

Talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatni rivojlantirish modelini amalga oshirish quyidagi didaktik shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi:

- 1) oliv ta’lim tashkilotlarida intellektual-kognitiv va ijodiy-tadqiqotchilik muhitini yaratish;
- 2) subyekt-subyekt tamoyiliga asoslangan shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini qo‘llash;
- 3) differentsial ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish;
- 4) axborot-kommunikatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- 5) sun’iy intellekt platformalaridan foydalanish;
- 6) tizimli monitoring va refleksiya.

Dissertatsiyaning “**Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi**” deb nomlangan uchinchi bobida kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning fundiyeringga asoslangan texnologik sxemasi, auditoriya mashg‘ulotlarida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish texnologiyalari hamda mustaqil ta’limni tashkil etishning innovatsion vositalari yoritib berilgan.

Fundiyerung (nemischa – asoslash, asos) – ontologik asoslashga doir munosabatlarni tavsiflash uchun fenomenologiyada foydalaniladigan atama. E.Gusserl fundirlash munosabatini quyidagi tarzda aniqlashtirgan: A B vositasida furdirlangan, agar B Aning mavjudligi uchun mohiyatan zarur bo‘lsa, faqat B bilan birlikda A mavjud bo‘lishi mumkin. Fundirlash munosabati bir tomonlama (A Bga furdirlangan) yoki ikki tomonlama (A va B bir-biriga fundirlangan) bo‘lishi mumkin. Fenomenologik ta’limotga ko‘ra, barcha kompleks murakkab darajadagi harakat va predmetlilik dastlabki oddiy harakat va predmetlarga asoslangan (funderlangan). Pedagogikada fundirlash tushunchasi dastlab 2002-yilda professionallashuv yo‘nalishida maktabda olingan bilimlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish va kengaytirish hamda kasbiy-pedagogik faoliyatning yaxlit tizimini shakllantirish jarayoni sifatida ilmiy va metodik bilimlarning yagona tizimini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish jarayoni sifatida V.D.Shadrikov va Ye.I.Smirnov tomonidan qo‘llanilgan.

Fundirlash – bu fikrlashni rivojlantirish, bo‘lajak pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlari yo‘nalishida maktab ta’limini nazariy umumlashtirish uchun zarur talaba shaxsiga xos tajriba va sifatlarni bosqichma-bosqich kengaytirish va chuqurlashtirish asosida pedagog shaxsining shakllanish jarayoni. Fundirlash umumta’limning tayanch o‘quv fanlari va oliy ta’limdagi bilimlarni aktuallashtirish va integratsiyalash bo‘yicha mexanizm va psixologik, pedagogik, tashkiliy, texnologik shart-sharoitlar asosida amalga oshadi.

Bo‘lajak pedagoglarning tajribasi va shaxsiy sifatlarini fundirlash konsepsiysi quyidagi komponentlar bo‘yicha talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishni talab etadi:

– tayanch maktab o‘quv elementlarining umumlashgan mazmuni va faoliyat turlari (bilim, ko‘nikma va malaka, tayanch kompetensiyalar, g‘oyalar, algoritm va protsedralalar, mazmunli yo‘nalishlar, shaxsiy tajriba tavsifi)ni aniqlash, tahlil qilish va amalga oshirish mexanizmlari;

– oliy ta’limdagi tayanch o‘quv elementlari va “maktab – oliy pedagogik ta’lim – maktab” yo‘nalishidagi faoliyat turlari (kasbiy, fundamental, texnologik)ni loyihalash darajalari va bosqichlarini aniqlash, tahlil qilish va amalga oshirish mexanizmlari;

– mehnat bozorida raqobatbardoshlikni rivojlantirish asoslari sifatida individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash va talabalarning mustaqilligini rivojlantirish (tashxislanadigan maqsadni belgilash, ko‘rgazmali modellashtirish, talabalarning o‘quv-bilish va ijodiy faoliyatini boshqarish mexanizmlari, didaktik modular, tayanch o‘quv elementlari va faoliyat turlarini o‘zlashtirishda kasbiy motivatsiyani shakllantirish bloki, pedagogik va o‘quv vazifalarini hal etish usullarini variativligi);

zamonaviy metodologik tamoyillar va konsepsiylar asosida tayanch maktab va oliy ta’lim o‘quv elementlari va faoliyat turlarining uzviyligini ta’minlashning didaktik maqbulligini aniqlash va amalga oshirish mexanizmlari.

Fundirlash konsepsiysi asosida shakllanadigan bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligi yangi sifati tanlov va sinergizm sharoitida innovatsion, shu jumladan, axborot texnologiyalarini amalga oshirishga tayyorlik, kasbiy vazifalarni hal etish qobiliyatini quyidagi yo‘nalishlarda oshirib borishni taqozo etadi:


mustaqillikni har tomonlama rivojlantirish asosida kvazikasbiy faoliyatga nisbatan motivatsiyani;

genetik va variativ asosda akademik va maktab bilimlarining integrative aloqadorliklarni o‘zlashtirish;

o‘quv vazifalari va faoliyat usullarini tushunish uchun jarayonlar, hodisalar va o‘quv elementlarini ko‘rgazmali modellashtirish;

standart va nostandard pedagogik vaziyatlarda qarorlar qabul qilishga doir kompetentlilik va boshqalar.

Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning fundiyeringga asoslangan texnologik sxemasi 4-rasmda keltirib o‘tilgan.



Izoh: I – adaptiv blok; II – amalga oshirish va boshqarish bloki; III – natijaviy blok

4-rasm. Kredit-modul tizimida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning texnologik sxemasi

Didaktik jarayonlarni fundirlashning maqbul shakli va vositasi hamda ko'rgazmali modellashtirishda didaktik modul tuzilmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Didaktik modul pedagogik vazifalarni hal etish jarayonida professor-o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyatining yaxlit tuzilmasini aks ettiradi. Faoliyatli ta'limot nazariyasi nuqtai nazaridan didaktik modul yo'naltiruvchi, ijrochilik va nazorat-korreksion qismlardan iborat bo'lishi lozim. Bu didaktik modulning uch asosiy komponentini aniqlab beradi: faoliyatning yo'naltiruvchi asosi; faoliyatning information asosi; professor-o'qituvchining talabaning kognitiv faoliyatini boshqarish bloki.

Didaktik modulni loyihalashga qo'yiladigan talablarga quyidagilarni kiritish mumkin: maktab va oliy ta'lim mazmunidagi uzviylik; bilimlarni taqdim etishning zamonaviy shakllari(mantiqiy, relyatsion, semantik, produktsion, freymli)dan foydalanish; maktab mazmunidagi o'quv elementlarini fundirlash spirallarini ochish va buzish; fundirlash spirallariga muvofiq motivatsion-amaliy vazifalar bloki va boshqalar. Didaktik modul tuzilmasi 5-rasmida keltirib o'tilgan.


Modulli ta'lim sharoitida o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarni tanlash va amalga oshirishdir. Bu strategiyalar nafaqat o'quv moduli mazmunini o'zlashtirishni ta'minlashi, balki tahliliy va tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, mustaqil ravishda ma'lumot izlash va o'z-o'zini baholash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qilishi lozim.

Muammoli ta'lim texnikalari talabalar mustaqil yoki guruh bo'lib, qo'yilgan vazifalarni yechish yo'llarini izlashi kerak bo'lgan intellektual jihatdan boy vaziyatlarni yaratishga asoslanadi. Bu nafaqat fikrlash faolligini rag'batlantiradi, balki to'liq bo'limgan yoki ziddiyatli ma'lumotlar bilan ishlash, xulosalar chiqarish va o'z nuqtai nazarini asoslash qobiliyatini shakllantiradi. Muammoli topshiriqlar o'quv materialini chuqur tushunish va mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqotchilikka asoslangan ta'lim texnikalari talabalarni ilmiy izlanishga yaqin faoliyatga jalb etadi: ular farazlar ilgari suradilar, tadqiqot usullarini tanlaydilar, natijalarni tahlil qiladilar. Bu, ayniqsa, yuqori kurslarda samarali bo'lib, ilmiy-tadqiqot madaniyati va loyiha faoliyatiga tayyorgarlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keys-stadi va ishbilarmonlik o'yinlari talablarga qaror qabul qilish, oqibatlarni tahlil qilish, jamoada hamkorlik qilish zarur bo'lgan haqiqiy kasbiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Bu usullar turli sohalardagi bilimlarni uyg'unlashtirish, tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik va turli vazifalar orasida tez o'tish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Loyihaviy ta'lim talabalarga ishning maqsad va vazifalarini mustaqil belgilash, uni bajarish bosqichlarini rejulashtirish, vazifa va resurslarni taqsimlash imkonini beradi. Loyiha ustida ishlash ijodiy va tizimli fikrlashni rivojlantirishni rag'batlantiradi, shuningdek, amaliy natijaga yo'naltirilganligi tufayli motivatsiyani oshiradi. Loyihalar ham individual, ham guruhli, shuningdek, fanlararo bo'lishi mumkin, bu ayniqsa modulli yondashuv doirasida dolzarbdir.



Izoh: M – ma'ruza; A – amaliy; L – laboratoriya; MT – mustaqil ta'lim; BKMAKK – bilim, ko'nikma, malaka, amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya, kompetentlik; N – nazorat; UT – uy topshirig'i; PM – pedagogik mahsulot; LI – loyiha ishi; K – kollokvium.

5-rasm. Didaktik modul tuzilmasi

Zamonaviy raqamli texnologiyalar talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirish, intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bunday vositalar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. LMS platformalari (Moodle, Canvas, Google Classroom) – o‘quv materialini o‘zlashtirishning aniq mantig‘i, baholashni avtomatlashtirish va teskari aloqa orqali tashkil etish imkonini beradi.

2. Interaktiv xizmatlar – Padlet (hamkorlikdagi onlayn doskalar), Miro (vizualizatsiya va aqliy hujum), Mentimeter (real vaqt rejimida so‘rovlar va testlar).

3. Bulutli yechimlar – Google Workspace, Microsoft Teams talabalarning real vaqt rejimida loyihalar va hujjatlar ustida hamkorlikda ishlashiga yordam beradi.

4. Raqamli kontent yaratish platformalari – Canva, Genially vizual fikrlash va taqdimot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish motivatsiyani oshirishga, ta’limni individuallashtirish va ta’lim muhitini auditoriyadan tashqariga kengaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bunday vositalar zamonaviy talabaning intellectual-kognitiv salohiyatining muhim tarkibiy qismlari bo‘lgan raqamli savodxonlik va raqamli muhitda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Oliy ta’lim tashkilotlarida mustaqil ishlarni ham auditoriyada, ham auditoriyadan tashqari faoliyatda turli shakllarda amalga oshirish mumkin. Lekin bugungi oliy ta’lim tizimiga kirib kelatyotgan kredit-modul tizimida mustaqil ishlarni bajarish va ularni elektron shaklda Hemis platformasida taqdim etishda aynan katta hajmdagi o‘quv materiallarini modellashtirilgan holda qisqa ko‘rinishga olib kelish va ixchamlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sun’iy intellektdan foydalangan holda talabalar o‘zlarining intellektual imkoniyatlarini bilib olishlari mumkin. Bu kabi intellekt turlariga quyidagilarni kiritish mumkin: vizual-fazoviy intellekt; lingvistik-verbal intellekt; matematik-mantiqiy intellekt; kinestik intellekt; musiqiy intellekt; shaxslararo muloqotga kirishuchvnlk intellekti; shaxsning ichki emotsiyonal intellekti; tabiiy intellekt; ekzistentsial intellekt.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish samaradorligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi va natijalari yoritib berilgan.

Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlar 2021–2022, 2022–2023, 2023–2024, 2024–2025-o‘quv yillarda Nukus davlat pedagogika institutining 157 nafar, Urganch davlat universitetining 100 nafar hamda Buxoro davlat universitetining 121 nafar tarix, boshlang‘ich ta’lim hamda matematika va inforatika bakalavriat таълим yo‘nalishlari talabalari bilan olib borildi.

Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlar uch bosqichda amalga oshirildi:

1) aniqlashtiruvchi – talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatining namoyon bo‘lishining mavjud holatini aniqlshtirish;

2) shakllantiruvchi – nazorat guruhi talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini an’anaviy tarzda amalga oshirish; tajriba guruhida pedagogik shart-sharoitlar majmuasiga rioya qilishni hisobga olgan holda talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning pedagogik modeli, mexanizmi va

texnologiyalarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish; tayyorgarlikning har bir bosqichi so‘ngida nazorat tahlillarini o‘tkazish;

3) yakuniy-umumlashtiruvchi – nazoratlar tahlili, talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatining rivojlanish darajasidagi o‘zgarishlarni aniqlash, natijalarni statistik qayta ishlash, olingan ma’lumotlarni umumlashtirish, tizimlashtirish, tahlil qilish va tavsiflash; tadqiqot natijalari asosida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida belgilangan vazifalarga muvofiq ravishda talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning motivatsion-qadriyatli, axboriy-kognitiv va tarnsferli, mantiqiy-analitik, kreativ-mahsulordorlik, texnologik va refleksiv-baholovchi komponentlarining tarkib topganligini o‘rganishga mo‘ljallangan diagnostik metodikalar majmui tanlab olindi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning diagnostik tizimi

No	Mezonlar	Parametrlar	Diagnostik vositalar
1.	Motivatsion-qadriyatli	Talabalarning bilishga qiziqish va ehtiyojlarining anglanganligi; o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishning namoyon bo‘lishi; o‘quv-bilish faoliyati hamda intellectual rivojlanishga nisbatan qadriyatli munosabat va uning barqarorligi	Shaxsning motivatsion tuzilmasi diagnostikasi (V.E.Vilman)
2.	Axboriy-kognitiv	Shaxsiy bilim va tajribasiga tayanish qobiliyati; kategoriylar asosida faoliyat obyektlarini tasnif qilish ko‘nikmasi; narsa-buyum va faoliyatga doir umumiyy strategiya, umumiyy bahoni topa olish qobiliyati; kognitiv nazoratning egiluvchanligi; reflektivlik; aniq va abstract kontseptualizatsiya; norealistik tajribaga nisbatan tolerantlik	Ye.Volkovaning “Kognitiv stil” metodikasi
3.	Metakognitiv	O‘zining ko‘nikmalarini, intellectual resurslari va qobiliyatlarini bilish; turli vaziyatlarda bilimlarini qo‘llay olish; o‘quv vaziyatlaridan qachon v anima uchun foydalanishni bilish; maqsadlarni tanlash va o‘qitish resurslarini taqsimlay olish; axborotlarni boshqarish strategiyasiga egalik; tushunish va amalga oshirishda xatolarni tuzata olish strategiyasiga egalik	“Metakognitiv faoliyatda ishtirok etish” so‘rovnomasasi; “O‘z-o‘zini boshqarishdagi qiyinchiliklar” anketasi; “Metakognitiv strategiyalar diagnostikasi” ekspress-anketasi
4.	Kreativ-texnologik	Ijodiy fikrlash; qiziquvchanlik; originallik; tasavvurning boyligi; intuitsiya; emotsionallik; empatiya; humor hissi; kasbga ijodiy munosabat	N.Vishnyakovaning “Kreativlik” testi; S.Mednikning verbal kreativlik testi (RAT)
5.	Faoliyatli-refleksiv	O‘zining his-tuyg‘ularini tahlil qilish; o‘zining xulq-atvori sabablari haqida o‘ylash; o‘zining fikrlarining tushunishning zarurligi; o‘zining xulq-atvori haqida o‘ylash; o‘zining ichki his-tuyg‘ularini anglay olish; o‘zining his-tuyg‘ulari va xulq-atvori baholay olish; o‘z-o‘zini tahlil qilishga qobiliyatlilik	Refleksivlik diagnostika metodikasi (Karpovning refleksivlik so‘rovnomasasi); Refleksivlivning ifodaviylik va yo‘nalganlik darajasi metodikasi (M.Grant)

Quyidagi 1-jadvalda nazorat va tajriba guruhlari talabalarida intellektual-kognitiv salohiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan dastlabki diagnostik tadqiqot natijalari keltirib o‘tilgan. Intellektual-kognitiv salohiyatning rivojlanganligini baholash uchun 90-100 ball (5-baho) – yuqori, 71-89 ball (4-baho) –


o'rta, 60-69 ball (3-baho) – past va 59-0 ball (2-baho) – juda past gepotetik darajalar asos qilib olindi.

2-jadval

Talabalarning tajriba avvalidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Mezonlar	Soni/ foizi	Darajalar							
		Yuqori	O'rta	Past	Juda past	Yuqori	O'rta	Past	Juda past
		Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
Motivatsion-qadriyatli	Soni	17	67	89	17	18	61	94	15
	Fozi	8,9%	35,3%	46,8%	8,9%	9,6%	32,4%	50,0%	8,0%
Axboriy-kognitiv	Soni	16	66	90	18	16	62	95	15
	Fozi	8,4%	34,7%	47,4%	9,5%	8,5%	33,0%	50,5%	8,0%
Metakognitiv	Soni	18	65	87	20	17	60	97	14
	Fozi	9,5%	34,2%	45,8%	10,5%	9,0%	31,9%	51,6%	7,4%
Kreativ-texnologik	Soni	19	68	86	17	20	58	94	16
	Fozi	10,0%	35,8%	45,3%	8,9%	10,6%	30,9%	50,0%	8,5%
Faoliyatli-refleksiv	Soni	20	64	88	18	19	59	95	15
	Fozi	10,5%	33,7%	46,3%	9,5%	10,1%	31,4%	50,5%	8,0%
O'rtacha qiymat	Soni	18	66	88	18	18	59	95	15
	Fozi	9,5%	34,7%	46,3%	9,5%	9,6%	31,4%	50,5%	8,0%

Olingan natijalarining mezonlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari tajriba va nazorat guruhlarida deyarli farq qilmasligi ya'ni tajriba guruhlarida 16-20 nafar (8-10%), nazorat guruhlarida 16-20 nafar (8-10%) yuqori daraja qayd etilgan bo'lib, o'rta darajadagilar esa mos ravishda o'rtacha 64 (33,7%) va 61 (32,4%) nafarni tashkil etishi kuzatildi. Bu tanlab olingan guruhlarning bilim darajasi bir xilligini va ulardan ko'rinadiki past va juda past darajadagi o'zlashtiruvchilar har ikkala guruhlarda 57%dan yuqori ekanligi talabalaarni kredit-modul tizimiga didaktik moslashtirish va ularning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish tizimini yangi yondashuvlar asosida takomillashtirish lozimligi haqidagi xulosaga kelindi. 2-jadvlada keltirib o'tilgan natijalar diagramma ko'rinishida 6-rasmida keltirib o'tilgan.



6-rasm. Tajriba avvalidagi diagnostik ko'rsatkichlar


Tajriba-sinov ishlari yakunidagi natijalar 2-jadvalda keltirib o‘tilgan.

3-jadval

Tajriba-sinov ishlari yakunida talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

Mezonlar	Soni/foizi	Darajalar							
		Yuqori	O‘rta	Past	Juda past	Yuqori	O‘rta	Past	Juda past
		Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
Motivatsion-qadriyatli	Soni	47	115	26	2	21	70	82	15
	Fozi	24,7%	60,5%	13,7%	1,1%	11,2%	37,2%	43,6%	8,0%
Axboriy-kognitiv	Soni	45	117	22	6	22	73	78	15
	Fozi	23,7%	61,6%	11,6%	3,2%	11,7%	38,8%	41,5%	8,0%
Metakognitiv	Soni	48	116	24	2	23	72	83	10
	Fozi	25,3%	61,1%	12,6%	1,1%	12,2%	38,3%	44,1%	5,3%
Kreativ-texnologik	Soni	49	115	21	5	20	74	79	15
	Fozi	25,8%	60,5%	11,1%	2,6%	10,6%	39,4%	42,0%	8,0%
Faoliyatli-refleksiv	Soni	46	117	22	5	24	76	78	10
	Fozi	24,2%	61,6%	11,6%	2,6%	12,8%	40,4%	41,5%	5,3%
O‘rtacha qiymat	Soni	47	116	23	4	22	73	80	13
	Fozi	24,7%	61,1%	12,1%	2,1%	11,7%	38,8%	42,6%	6,9%

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha mezonlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tajriba va nazorat guruhlarida bir-biridan farq qiladi. Yuqori daraja tajriba guruhida 24,7%, nazorat guruhida esa, 11,7% ni tashkil etdi. O‘rta daraja tajriba guruhida 61,1% ni tashkil etib, nazorat guruhidagi 38,8% ko‘rsatkichdan sezilarli darajada yuqori. Past daraja tajriba guruhida 12,1% bo‘lib, nazorat guruhida esa 42,6% ni tashkil etgan. Juda past daraja tajriba guruhida 2,1% bo‘lib, nazorat guruhidagi 6,9% bilan solishtirganda yaqqol ustunlik mavjud. Buning diagramma ko‘rinishi 7-rasmda o‘z aksini topgan.




7-rasm. Tajriba so‘nggidagi diagnostik ko‘rsatkichlar

Tajriba va nazorat guruqlaridagi baholash natijalarini mos ravishda X va Y tasodifiy miqdorlarni kuzatish natijasida olingan 1- va 2- tanlanmalar deb qabul qilinib, quyidagi variatsion qatorlar hosil qilindi va ular 4-jadvalda o‘z ifodasini topgan.

4-jadval
Talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari umumiy tahlili

Bosqichlar	Tajriba guruhi					Nazorat guruhi				
	X_i	“5”	“4”	“3”	“2”	Y_j	“5”	“4”	“3”	“2”
Tajriba avvalida	$n_i=190$	18	66	88	18	$n_j=188$	18	60	95	15
Tajriba so‘ngida	$n_i=190$	47	116	23	4	$n_j=188$	22	73	80	13

4-jadvalda keltirilgan natijalarga mos diagramma 8-rasmda o‘z ifodasini topgan.



8-rasm. Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish samaradorligi

\overline{XY} qiymatlarni ko‘rib chiqishda tajriba guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish nazorat guruhi qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi: >.

Tajriba guruhida:

$$\overline{X} - t_{\gamma} * \frac{D_m}{\sqrt{m}} = 4,08 - 1,96 \frac{0,67}{\sqrt{190}} = 3,98$$

$$\overline{X} + t_{\gamma} * \frac{D_m}{\sqrt{m}} = 4,08 + 1,96 \frac{0,69}{\sqrt{198}} = 4,17$$

Demak, tajriba guruhidagi matematik kutilma uchun ishonchli oraliqlar:

$$3,99 \leq \alpha_x \leq 4,17$$

Nazorat guruhidagi ishonchli oraliq:

$$\overline{Y} - t_{\gamma} * \frac{D_m}{\sqrt{m}} \leq \alpha_y \leq \overline{Y} + t_{\gamma} * \frac{D_m}{\sqrt{m}}$$

$$\overline{Y} - t_{\gamma} * \frac{D_n}{\sqrt{n}} = 3,55 - 1,96 \frac{0,78}{\sqrt{188}} = 3,43$$

$$\overline{Y} + t_{\gamma} * \frac{D_n}{\sqrt{n}} = 3,55 + 1,96 \frac{0,78}{\sqrt{188}} = 3,66$$

$$3,43 \leq \alpha_y \leq 3,66$$

Olingen natijalarining statistik tahlili samaradorlikni ko'rsatdi va ularning xulosalariga ko'ra, N1 farazning qabul qilinishi umumiy samaradorlik tajriba yakunida olingen natijalarga nisbatan 1,15 barobar, ya'ni 15 foiz yuqori ekanligi bilan statistik jihatdan isbotlandi.

XULOSA

Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mustaqil bilim olish (kognitivlik) va intellektga (aqlga) asoslangan insonning salohiyati uning jamiyatda o'z o'rnini topishiga, davlat va jamiyatning rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda uning o'zligini anglashi, tashqi salbiy ta'siridan himoyalanishi, ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ham asos bo'lib xizmat qiladi.

2. "Intellektual-kognitiv salohiyat" tushunchasini ilmiy-pedagogik fenomen sifatida tahlil etish uning asosini tashkil etuvchi "intellekt nazariyasi", "kognitsiya nazariyasi" va "salohiyat nazariyasi" masalalarini alohida ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganishni talab etadi.

3. Intellektual-kognitiv salohiyat – bu insoning aqliy va bilish faoliyati, muammolarga yechim topish, axborotlarni kasbiy faoliyatda qo'llash, yangi sharoitlarga moslashish, ta'lim resurslari va kontentlaridan samarali foydalanishni o'zida birlashtiradigan individual-integrativ sifati, fikrlash qobiliyati va inson ongingin rivojlanganlik darajasi, intellektual koeffitsiyentini (IQ) belgilovchi hamda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga doir murakkab, keng qamrovli fenomen va yaxlit tizimdir.

4. Talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatni rivojlantirishning o'ziga xosligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, motivatsion-qadriyatli, axboriy-kognitivli va transferli, mantiqiy-analitik, obrazli-modelli va intuitiv-evristik fikrlash, kreativ-natijadorlik, texnologik-amaliy faoliyatli, refleksiv-baholovchi komponentlarning o'zaro aloqadorligi va shartlanganliigini talab etadi.

5. Kredit-modul tizimi talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida qaralishi lozim, chunki u tez o'zgaruvchan axborot-raqamli muhitida talabalarning mustaqil bilim olish, analitik fikrlash, refleksiv pozitsiyasi va strategik qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

6. Talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish murakkab va keng qamrovli jarayon bo'lib, ta'lim oluvchilarining bilish jarayonlari, aqliy qobiliyati, kasbiy-pedagogik layoqati, ijodiy imkoniyatlari va vitagen tajribalarini o'zida birlashtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan oliy ta'lim muassasalarida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishda pesixologik-pedagogik determinantlarning validligini hisobga olish lozim.

7. Talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish funktsiyalari sifatida diqqat (selektiv, barqaror, ingubatsiya); bilish jarayonlaridagi egiluvchanlik; topshiriqlar va vazifalarni bajarishdagi faollik (rejalashtirish, nazorat, qarorlar qabul qilish); tafakuur va nutq asosiy o'rinni egallaydi. Ana shu sababli, talabalarda

intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish jarayonini modellashtirishda mazkur jarayon tuzilmasi va funktsiyalarini qat'iy hisobga olish lozim.

8. Talabalarda intellektual-kognitiv salohiyatni rivojlantirish modelini amalga oshirish oliy ta`lim tashkilotlarida intellektual-kognitiv va ijodiy-tadqiqotchilik muhitini yaratish, subyekt-subyekt tamoyiliga asoslangan shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta`lim texnologiyalarini qo‘llash, differential ta`lim imkoniyatlaridan foydalanish, axborot-kommunikatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish, sun’iy intellekt platformalaridan foydalanish, tizimli monitoring va refleksiya kabi didaktik shart-sharoitlarni hisobga olish lozim.

9. Bo‘lajak pedagoglarning tajribasi va shaxsiy sifatlarini fundirlash konsepsiysi quyidagi komponentlar bo‘yicha talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishni talab etadi: tayanch maktab o‘quv elementlarining umumlashgan mazmuni va faoliyat turlarini aniqlash, tahlil qilish va amalga oshirish mexanizmlari; oliy ta’limdagi tayanch o‘quv elementlari va “maktab – oliy pedagogik ta’lim – maktab” yo‘nalishidagi faoliyat turlarini loyihalash darajalari va bosqichlarini aniqlash, tahlil qilish va amalga oshirish mexanizmlari; mehnat bozorida raqobatbardoshlikni rivojlantirish assoslari sifatida individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash va talabalarning mustaqilligini rivojlantirish.

10. Modulli ta’lim sharoitida o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarni (muammoli ta’lim; tadqiqotchilikka asoslangan ta’lim; keys-stadi va ishbilarmonlik o‘yinlari; loyihaviy ta’lim) tanlash va amalga oshirishdir. Bu strategiyalar nafaqat o‘quv moduli mazmunini o‘zlashtirishni ta’minlashi, balki tahliliy va tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, mustaqil ravishda ma’lumot izlash va o‘zini baholash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qilishi lozim.

11. LMS platformalari (Moodle, Canvas, Google Classroom); interaktiv xizmatlar – Padlet, Miro, Mentimeter; bulutli yechimlar – Google Workspace, Microsoft Teams; raqamli kontent yaratish platformalari – Canva, Genially kabi zamonaviy raqamli texnologiyalar talabalarning o‘quv-bilish faolligini oshirish, intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **ilmiy-metodik tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Ilmiy-tadqiqot yo‘nalishida:

uzluksiz talimda ta’lim oluvchilarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishda sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga doir amaliy va fundamental tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

ko‘rgazmali-modulli va fundirlangan ta’lim kontsepsiylarining oliy pedagogic ta’limga joriy etishga doir ilmiy-laboratoriyalarni tashkil etish.

2. Ta’lim dasturlari va o‘qitish mazmunini takomillashtirish bilan bog‘liqlikda:

talabalarning bilish mustaqilligi, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va refleksiv qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan amaliy va evristik modulli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;

har bir modulning yuqori darajadagi kognitiv funktsiyalarni (tahlil, sintez, baholash, refleksiya) rivojlantirishga yo‘naltirilgan interaktiv va muammoli-izlanishga doir freymini ishlab chiqish;

talabalarga o‘zlarining kognitiv uslubi va qiziqishlariga mos ravishda modullarni tanlash imkonini berish orqali o‘quv-bilish faoliyatining variativligini ta’minlash.

3. O‘qitish va didaktik ta’minotni takomillashtirish bo‘yicha:

o‘qituvchilarni intellectual-kognitivlikka yo‘naltirilgan ko‘rgazmali-modulli o‘qitish metodikasi bo‘yicha malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish;

talabalarning bilish faoliyatini rag’batlantirishga doir raqamli resurslar va ta’minotni muntazam yangilab borish.

4. Tashxis va baholash darajasida:

kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning intellektual-kognitiv rivojlanish darajalarini aniqlash tizimini ishlab chiqish;

faqatgina natijani qayd etish emas, balki shaxsiy rivojlanishni hisobga olgan holda rivojlanishga yo‘naltirilgan shakllantiruvchi baholashni qo‘llash;

talabaga o‘z intellektual rivojlanishining taraqqiyotini ko‘rsata oladigan portfolio-dalillar asosidagi baholash tizimini joriy etish.

5. O‘quv jarayonini tashkil etishga doir:

modullarning kognitiv murakkabligini hisobga olgan holda talabalarning o‘quv yuklamasini moslashuvchan tarzda rejalashtirish;

talabalarga o‘z individual ta’lim trayektoriyasi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan o‘z-o‘zini tashkillashga qodir o‘quv-biluv muhitini shakllantirishga ko‘maklashish;

yxlit ilmiy dunyoqarash va tizimli fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan evristik modullarni ta’lim amaliyotiga joriy etish lozim.

6. Oliy ta’lim muassasasining institutsional siyosati darajasida:

Hackathon dasturchilar tadbirlarini tashkil etish jarayonida sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishga yo‘naltirilgan hamda talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi talablarning qo‘yilishi;

talabalarning intellectual-kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun mentorlik dasturlari, ilmiy to‘garaklar, tadqiqotchilik klublarini yo‘lga qo‘yish lozim;

kognitiv va intellektual qobiliyatlarni amaliy rivojlantirish shakli sifatida talabalarning akademik va intellektual tanlovlari hamda olimpiadalardagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.01/2025.27.12.Ped.09.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НУКУССКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**
**НУКУССКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

ОТЕПБЕРГЕНОВ ЖЕТКЕРБАЙ САКБЕРГЕНОВИЧ

**РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНО-КОГНИТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА
СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора (DSc) ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК**

Нукус – 2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № B2022.1.DSc/Ped277.

Диссертация выполнена в Нукусском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ndpi.uz) и Образовательном портале ZiyoNET (www.ziynet.uz).

Научный консультант:

Ходжаев Бегзод Худойбердиевич
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Ибрахимов Санжар Уринбаевич
доктор педагогических наук, доцент

Хамидов Жалил Абдурасолович
доктор педагогических наук, профессор

Азимова Зиёда Эргашевна
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится «31» I 2026 года в 9⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.01/2025.27.12.Ped.09.01 по присуждению ученых степеней при Нукусском государственном педагогическом институте. (Адрес: 230105, город Нукус, улица П.Сейтова, дом б/н). Тел.: (99861) 229-40-75; факс: (99861) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Нукусского государственного педагогического института (зарегистрирована за № 170). (Адрес: 230105, город Нукус, улица П.Сейтова, дом б/н). Тел.: (99861) 229-40-75; факс: (99861) 229-40-75.

Автореферат диссертации разослан «17» I 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 170 от «17» I 2026 года).



Б.Н. Симуратов
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д. ф.-м. н., профессор

Г.К. Клырбаева
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
д. ф. н., профессор


А.К. Бердимуратова
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д. ф. н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире ускорение международного сотрудничества в области образования и тенденции перехода к высококачественному образованию требуют внимания к «капиталу будущего» как гарантии перспективного благополучия. Процессы повышения мобильности специалистов на мировом рынке труда, обеспечения вертикальной и горизонтальной конкуренции между образовательными учреждениями, достижения признания дипломов выпускников высших образовательных учреждений в разных странах, внедрения единой системы оценки по обеспечению мобильности студентов и профессоров-преподавателей, а также такие особенности современного образования, как гуманизация, информатизация, цифровизация, коммерциализация, технологизация, фундаментальность, дифференциация, стандартизация и диверсификация, определяют потребность в кадрах с знаниями и интеллектуальным потенциалом. В эпоху искусственного интеллекта в таких развитых странах, как США, Германия, Россия, Китай, Япония, Сингапур, разрабатывается ряд проектов по организации формального и неформального образования будущих специалистов.

В мире проводится ряд научных исследований по формированию гибких и специальных компетенций у выпускников высших образовательных учреждений, обеспечению конвергенции интерактивного образования с цифровыми технологиями, совершенствованию механизмов достижения интенсивности персонализированной системы обучения на основе мультимодального подхода. Особенno усиливается потребность в переходе от традиционной образовательной парадигмы к компетентностной парадигме, направленной на самостоятельное получение знаний, самовоспитание, самостоятельное и активное обучение и самоорганизацию при сохранении национального менталитета и национальной идентичности. Это, в свою очередь, требует совершенствования дидактической системы подготовки в высших образовательных учреждениях кадров с индивидуальными образовательными траекториями, способных к саморазвитию, обладающих личностными и профессиональными качествами, самостоятельно определяющих стратегии достижения персонализированных результатов, обладающих интеллектуально-когнитивным потенциалом.

В нашей республике создается ряд организационно-педагогических условий для формирования содержания образования в соответствии с тенденциями развития науки и производства, координации форм организации учебного процесса, эффективного применения современных методов, средств и технологий обучения, проектирования индивидуальных траекторий профессионального развития. «Подготовка высококвалифицированных, креативно и системно мыслящих, способных принимать самостоятельные решения кадров на основе международных стандартов, создание необходимых условий для проявления их интеллектуальных способностей и формирования духовно зрелой личности»¹

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш турғисида”ги ПФ-5847-сон Фармони. Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон. Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й.,

определенены как одна из стратегических целей развития системы высшего образования. Это требует совершенствования модели развития интеллектуально-когнитивного потенциала студентов педагогических высших образовательных учреждений и дидактических условий ее внедрения в практику, а также технологий развития интеллектуально-когнитивного потенциала студентов в условиях кредитно-модульной системы.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в указах Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года № УП-60, «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 29 апреля 2019 года № УП-5712, «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года № УП-5847, «О Стратегии «Узбекистан–2030» от 11 сентября 2023 года № УП-158, «О дополнительных мерах по обеспечению качества образования и совершенствованию системы оказания образовательных услуг» от 5 мая 2025 года № УП-76, постановлениях главы государства «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений по подготовке педагогических кадров» от 21 июня 2022 года № ПП-289, Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию системы организации образовательного процесса в высших образовательных учреждениях» от 31 декабря 2020 года № 824, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства, а также пути их реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации². Научные исследования, связанные с развитием интеллектуально-когнитивного потенциала студентов на основе кредитно-модульной системы, проводятся в крупных научных центрах и высших образовательных учреждениях мира, в том числе в Harvard University, Massachusetts Institute of Technology (США), University of Oxford, University of Cambridge (Великобритания), University of Munich, Heidelberg University, University of Cologne (Германия), Белгородском государственном

06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон; Конунчилик мълумотлари миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон; 04.07.2023 й., 06/23/107/0441-сон.

